

MINTAQALAR IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI NOMUTANOSIBLIK LARNI BARTARAF ETISHDAGI XORIJIY TAJRIBASI

Ismoilov Alisher Jobir o'g'li

Namangan muhandislik-qurilish instituti

katta o'qituvchisi

E-mail: presentutor@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish borasida xorijiy mamlakatlar tajribasi chuqur tahlil qilingan. Mintaqaviy rivojlanishdagi nomutanosibliklarning yuzaga kelish sabablari va ularni bartaraf qilish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar ko'rib chiqilgan. Xususan, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, AQSh, Shimoliy Yevropa mamlakatlari (Shvetsiya, Daniya, Norvegiya) hamda Osiyo davlatlari (Singapur, Malayziya, Tayvan) kabi rivojlangan davlatlarning tajribasi asosida mintaqalararo farqlarni kamaytirishda qo'llaniladigan asosiy usullar va vositalar aniqlangan. Xorijiy davlatlarda qo'llanilayotgan davlat-xususiy sheriklik, klasterlash, raqamli transformatsiya, hududiy o'sish qutblari shaklidagi modellar tahlil qilinib, ulardan O'zbekiston sharoitida foydalanish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, mintaqaviy nomutanosiblik, mintaqaviy iqtisodiyot, xorijiy tajriba, davlat-xususiy sheriklik, klasterlash, raqamli transformatsiya, o'sish qutblari, Germaniya, Yaponiya, Shimoliy Yevropa, Janubiy Koreya.

Аннотация

В статье дан глубокий анализ опыта зарубежных стран по устранению диспропорций в социально-экономическом развитии регионов. Рассмотрены причины диспропорций регионального развития и передовой зарубежный опыт их устранения. В частности, на основе опыта развитых стран, таких как Германия, Япония, Южная Корея, Китай, США, стран Северной Европы (Швеция, Дания, Норвегия), а также стран Азии (Сингапур, Малайзия, Тайвань), выявлены основные методы и инструменты, используемые для снижения межрегиональных различий. Проанализированы используемые в зарубежных странах модели, такие как государственно-частное партнерство, кластеризация, цифровая трансформация, региональные полюса роста, и разработаны практические предложения по их использованию в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: социально-экономическое развитие, региональные диспропорции, региональная экономика, зарубежный опыт, государственно-частное партнерство, кластеризация, цифровая трансформация, полюса роста, Германия, Япония, Северная Европа, Южная Корея.

Abstract

The article provides an in-depth analysis of the experience of foreign countries in eliminating disparities in the socio-economic development of regions. The causes of disparities in regional development and advanced foreign experiences in eliminating them are considered. In particular, based on the experience of developed countries such as Germany, Japan, South Korea, China, the USA, Northern European countries (Sweden, Denmark, Norway) and Asian countries (Singapore, Malaysia, Taiwan), the main methods and tools used to reduce interregional differences are identified. Models used in foreign countries in the form of public-private partnerships, clustering, digital transformation, and regional growth poles are analyzed, and practical proposals are developed for their use in the conditions of Uzbekistan.

Keywords: socio-economic development, regional imbalances, regional economy, foreign experience, public-private partnership, clustering, digital transformation, growth poles, Germany, Japan, Northern Europe, South Korea.

KIRISH

Hozirgi kunda dunyo mamlakatlari oldida turgan dolzarb muammolardan biri hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi nomutanosibliklardir. Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, mamlakat ichidagi hududlar orasidagi iqtisodiy tengsizliklar barqaror rivojlanishga jiddiy to'siq bo'lmoqda [1]. 2022-yilning BMT Inson taraqqiyoti hisobotida ham hududlararo farqlarni qisqartirish zarurati alohida ta'kidlangan [2]. O'zbekiston Prezidenti tomonidan 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasi mintaqalarini rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi qarori va boshqa normativ hujjatlar hududlar rivojlanishidagi nomutanosibliklarni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilab berdi [3]. Shunga ko'ra, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, tahlil qilish va ulardan O'zbekiston sharoitida samarali foydalanish mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mintaqaviy iqtisodiyotda nomutanosibliklarni kamaytirish borasidagi xorijiy tajribalarni ko'rib chiqishda AQSh tajribasida "Appalachi mintaqasini rivojlantirish" loyihasi, Germaniyada Sharqiy va G'arbiy hududlarni integratsiyalash siyosati, Janubiy Koreyada "Sejong va Busan" iqtisodiy zonalarini rivojlantirish dasturi, Xitoyda G'arbiy Xitoyni rivojlantirish strategiyasi, Shimoliy Yevropada hududiy innovatsion klasterlarni shakllantirish tajribalari hamda Osiyo mamlakatlarida hududiy iqtisodiy tenglikni ta'minlashga qaratilgan innovatsion va texnologik strategiyalar alohida o'rganildi va tahlil qilindi [4].

Hududiy rivojlanishdagi nomutanosibliklarning mavjudligi iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida jiddiy muammolarga olib kelishi mumkin. Bu holat aholining turmush darajasi va sifatida katta farqlar paydo qiladi, mehnat resurslarining migratsiyasini kuchaytiradi hamda mamlakatning umumiy iqtisodiy o'sish sur'atlarini pasaytirishi mumkin. Shuning uchun ham hududlararo teng rivojlanishni ta'minlash siyosati davlatlarning iqtisodiy rivojlanish strategiyalarida muhim o'rin tutmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Interreg Europe dasturi Yevropa Ittifoqining hududlararo hamkorlik siyosatlarini amaliyotda qo'llash orqali hududlarning iqtisodiy farqlarini kamaytirish bo'yicha samarali mexanizmlarini taqdim etadi. Xitoydagi maxsus iqtisodiy zonalar sanoat klasterlarini shakllantirish orqali iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirgan muhim mexanizmlardir. Ayniqsa, Shenzhen iqtisodiy zonasining tashkil etilishi xalqaro investitsiyalar oqimini kuchaytirib, sanoat va texnologiyalar rivojlanishini tezlashtirgan. Ushbu model boshqa davlatlar uchun iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishda yaxshi amaliy misol hisoblanadi. Polshadagi maxsus iqtisodiy zonalar xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va yangi ish joylari yaratish orqali mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Hindistonning iqtisodiy nomutanosibliklarini o'rganish orqali mamlakatning mintaqaviy siyosatlari va ularning iqtisodiy farqlarni kamaytirishdagi roli tahlil qilingan. Ushbu siyosatlar hududlarning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy tenglikni oshirishga xizmat qilgan. Rossiyada yer islohoti va yer bozorlarining rivojlanishi iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning muhim vositasi sifatida qaraladi. Tadqiqot yer resurslarini samarali boshqarish orqali hududlarning iqtisodiy rivojlanishini tezlashtirish mumkinligini ko'rsatadi [5].

Janubiy Koreya tomonidan Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorlik "K-Silk Road" loyihasi orqali amalga oshirilmoqda. Ushbu tashabbus hududlararo savdo aloqalarini rivojlantirish, iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash va investitsiyalarni jalb qilishni maqsad qiladi [6].

AQSh sanoat siyosati iqtisodiy raqobatbardoshlik va sanoat tarmoqlarini rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan. Ushbu tadqiqotda AQSh tajribasining mintaqaviy rivojlanishga ijobiy ta'sirlari muhokama qilingan [7].

Irlandiyadagi erkin zonalar xorijiy investitsiyalar oqimini rag'batlantirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim strategik mexanizm sifatida tahlil qilinadi. Mazkur zona mintaqaviy iqtisodiyotning rivojlanishida samarali vosita hisoblanadi [8].

Albaniyaning iqtisodiy va texnologik zonalar xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy integratsiyani rag'batlantirish orqali hududiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu hisobot iqtisodiy integratsiyaning muhim jihatlarini ko'rib chiqadi [9].

Braziliyada mintaqaviy rivojlanish fondlari iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan hududlarni qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy o'sish va rivojlanishni rag'batlantiradi. Tadqiqot fondlarni iqtisodiy samaradorligini ilmiy usullar orqali asoslab bergan [10].

Germaniya mintaqaviy rivojlanishni rag'batlantirish siyosatlarida iqtisodiy nomutanosibliklarni kamaytirishga qaratilgan davlat dasturlarini qo'llaydi. Mazkur tadqiqotda Germaniya tajribasi hududiy rivojlanishni samarali boshqarishda namuna sifatida keltiriladi [11].

Turkiyadagi mintaqaviy rivojlanish agentliklarining evolyutsiyasi va faoliyati hududiy iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqot bu agentliklarning mintaqaviy siyosatlar va iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini chuqur tahlil qiladi [12].

Malayziyadagi Iskandar iqtisodiy hududi barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun xorijiy investitsiyalar oqimini jalb qilmoqda. Hududning strategik ahamiyati iqtisodiy integratsiya va rivojlanishni rag'batlantirish orqali namoyon bo'ladi [13].

Yaponiyada startaplar muhitini rivojlantirish va mintaqaviy iqtisodiy tashabbuslarning roli iqtisodiy o'sish va rivojlanishni jadallashtirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi. Ushbu tadqiqot Yaponiya tajribasining hududiy iqtisodiyot rivojlanishidagi samaradorligini ko'rsatadi [14].

METODOLOGIYA

Tadqiqot metodologiyasi sifatida kompleks tizimli yondashuv qo'llanilgan bo'lib, bu orqali hududiy nomutanosibliklarning sabablari va ularni bartaraf etish imkoniyatlari har tomonlama tahlil qilindi. Ushbu metodologiya quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Adabiyotlarni tahlil qilish usuli: Tadqiqotning dastlabki bosqichida mavzuga oid mavjud ilmiy manbalar, jumladan, xalqaro tajribalar va ilgari o'tkazilgan tadqiqot natijalari chuqur o'rganilib, ular tahlil qilindi. Bu usul orqali muammo va uning yechimlari bo'yicha ilmiy asoslar shakllantirildi.

Taqqoslama-tahliliy usul: Ushbu metod orqali turli mamlakatlarning mintaqaviy nomutanosibliklarni bartaraf qilishdagi tajribalari taqqoslanib, har bir mamlakat tajribasining afzallik va kamchiliklari aniqlanib, samarali modellarning umumiy xususiyatlari aniqlab olindi.

Statistik tahlil va ma'lumotlarni umumlashtirish usuli: Tadqiqot davomida turli mamlakatlarning statistik ma'lumotlari va hisobotlari to'plandi va ular asosida chuqur statistik tahlil amalga oshirildi. Bu orqali hududlararo rivojlanishdagi farqlarni kamaytirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlarning samaradorligi baholandi.

Kuzatuv va ekspert so'rov usuli: Ekspertlar, jumladan, iqtisodiyot sohasi olimlari va amaliyotchilarning fikr va mulohazalari olingan holda, mintaqaviy rivojlanish siyosatlari va ularning samaradorligi yuzasidan sifatli ma'lumotlar yig'ildi.

Induktiv va deduktiv tahlil usuli: Ushbu usul orqali mintaqaviy rivojlanish strategiyalari bo'yicha nazariy modellar ishlab chiqilib, ular amaliy tajribalar bilan taqqoslandi va sintez qilindi. Bu orqali mintaqaviy nomutanosibliklarni kamaytirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Case-study (holatlarni o'rganish) usuli: Tadqiqotda muvaffaqiyatli xalqaro tajribalarni chuqur o'rganish maqsadida alohida holatlar (mamlakatlar yoki mintaqalar) tanlab olindi. Bu orqali nazariy bilimlarni amaliy sharoitlarda qo'llash imkoniyatlari ko'rib chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqaviy nomutanosibliklarni kamaytirish bo'yicha olib borilgan iqtisodiy siyosatlarning natijadorligini baholash maqsadida xalqaro va milliy tajribalarni qamrab oluvchi tahlillar amalga oshirildi. Quyidagi jadvallar orqali xalqaro miqyosda hamda O'zbekiston Respublikasi hududlarida 2020-2025-yillar davomida amalga oshirilgan investitsiyalar hajmi, yangi yaratilgan ish o'rinlari va yalpi ichki mahsulotning (YaIM) o'sish dinamikasi hamda hududlararo iqtisodiy farqlarning kamayishi ko'rsatkichlari keng va chuqur ilmiy jihatdan tahlil etilgan.

1-jadval.

Xalqaro tajribalarning asosiy ko'rsatkichlari (2020-2025-yillar)

Mamlakat	Investitsiyalar (mlrd. AQSh dollari)	Yaratilgan ish o'rinlari soni (ming nafar)	YaIM o'sishi (%)	Hududiy farqlar kamayishi (%)
Xitoy	250	420	8.2	15
Polsha	50	120	4.7	12
Germaniya	180	250	3.5	10
J.Koreya	90	200	4.8	14
Turkiya	65	150	5.2	11
O'zbekiston	18.7	420	6.5	12

Manba: Jahon banki, Yevropa statistikasi va milliy statistika agentliklari.

Yuqoridagi jadvalda ko'rsatilgan xalqaro tajribalar turli mamlakatlarda amalga oshirilgan iqtisodiy chora-tadbirlarning samaradorligini aks ettiradi. Xitoy eng yuqori ko'rsatkichlarga erishgan bo'lib, maxsus iqtisodiy zonalar orqali yirik miqdordagi investitsiyalar jalb qilingan va ko'plab ish joylari yaratilgan (1-jadval).

Bu holat mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishi va hududiy farqlarning sezilarli kamayishiga olib kelgan. O'zbekiston ham investitsiyalarni jalb qilish va yangi ish o'rinlari yaratishda sezilarli natijalarga erishgan mamlakatlar qatorida qayd etildi.

2-jadval.

O'zbekiston Respublikasidagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar (2020-2025-yillar)

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Investitsiyalar (mlrd. AQSh dollari)	10.5	12.0	13.8	15.5	17.0	18.7
Yaratilgan ish o'rinlari soni (ming)	250	280	310	345	380	420
YaIM o'sishi (%)	1.6	4.8	5.4	5.8	6.1	6.5
Hududiy farqlarning kamayishi (%)	3.5	5.2	7.0	8.5	10.2	12.0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi va Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisobotlari.

Mintaqaviy nomutanosibliklarni kamaytirish bo'yicha olib borilgan iqtisodiy siyosatlarining natijadorligini baholash maqsadida xalqaro va milliy tajribalarni qamrab oluvchi tahlillar amalga oshirildi (2-jadval).

Quyidagi jadvallar orqali xalqaro miqyosda hamda O'zbekiston Respublikasi hududlarida ushbu yillar davomida amalga oshirilgan investitsiyalar hajmi, yangi yaratilgan ish o'rinlari va yalpi ichki mahsulotning (YaIM) o'sish dinamikasi hamda hududlararo iqtisodiy farqlarning kamayishi ko'rsatkichlari keng va chuqur ilmiy jihatdan tahlil etilgan.

O'zbekistonda 2020-2025-yillar orasida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar va rivojlanish dasturlari investitsiyalarni jalb qilish hamda yangi ish o'rinlarini yaratishda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishgan. Ayniqsa, iqtisodiy o'sish sur'atlarining yuqoriligi hududlar o'rtasidagi iqtisodiy farqlarning kamayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

3-jadval.

O'zbekistondagi hududlararo rivojlanish ko'rsatkichlari (2020-2025-yillar)

Hududlar	Investitsiyalar o'sishi (%)	Yangi ish o'rinlari (ming)	Mahalliy YaIM o'sishi (%)
Toshkent shahri	35	120	7.2
Samarqand viloyati	28	80	6.8
Farg'ona viloyati	30	85	6.9
Qashqadaryo viloyati	25	70	6.5
Navoiy viloyati	40	65	7.0
Namangan viloyati	32	75	6.7

Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi hududiy bo'limlari.

Ushbu jadval orqali ko'rinib turibdiki, O'zbekiston hududlarining har birida iqtisodiy rivojlanish tendensiyasi mavjud bo'lib, ayniqsa Toshkent shahri va Navoiy viloyatida investitsiyalar hajmi va mahalliy YaIM o'sishi eng yuqori darajaga yetgan. Namangan viloyati ham yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lib, investitsiya oqimi va yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha sezilarli natijalarga erishilgan. Ushbu natijalar hududlararo iqtisodiy nomutanosibliklarning kamayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatganligini isbotlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqolada mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi nomutanosibliklarni bartaraf etish bo'yicha xalqaro va milliy tajribalar chuqur ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot davomida olingan natijalar asosida quyidagi ilmiy xulosalar chiqarildi:

Xalqaro amaliyot ko'rsatishicha, maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etish, investitsiyalar oqimini oshirish va ish o'rinlari yaratishni rag'batlantirish hududiy iqtisodiy farqlarni sezilarli kamaytirishda samarali vositalar hisoblanadi. Ayniqsa, Xitoy, Polsha, Janubiy Koreya kabi davlatlarning tajribasi buni isbotlaydi. O'zbekiston uchun ham shunday siyosatlarni moslashtirish va rivojlantirish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida 2020-2025-yillarda olib borilgan iqtisodiy siyosatlar natijasida iqtisodiy o‘shish barqarorlashgan, investitsiyalar oqimi sezilarli oshgan hamda yangi ish o‘rinlari yaratilgan. Bu esa, o‘z navbatida, mintaqalar o‘rtasidagi iqtisodiy nomutanosibliklarni kamaytirish imkonini bergan. Biroq, iqtisodiy farqlarni yanada qisqartirish uchun bu natijalarni tizimli ravishda mustahkamlash talab etiladi.

Hududlararo rivojlanishdagi farqlarni kamaytirish O‘zbekiston iqtisodiyotining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta‘minlashning asosiy shartlaridan biridir. Shu nuqtai nazardan, davlat tomonidan yangi kompleks chora-tadbirlar va dasturlar ishlab chiqilishi hamda mavjud dasturlar samaradorligini oshirish zarurati mavjud.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida quyidagi kengaytirilgan va ilmiy asoslangan amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, davlat siyosatida maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil qilish va rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish va investitsiyalarni rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni joriy qilish.

Ikkinchidan, xorijiy va mahalliy investorlarni jalb qilish uchun hududiy darajada investitsiya muhitini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish, bunda soliq va bojxona imtiyozlari tizimidan samarali foydalanish zarur.

Uchinchidan, mintaqalararo iqtisodiy farqlarni doimiy ravishda baholab boruvchi va tahlil qiluvchi monitoring tizimini yaratish hamda uning asosida tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish mexanizmlarini ishlab chiqish.

To‘rtinchidan, hududlarda innovatsion sanoat klasterlarini shakllantirish va rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat dasturlarini kengaytirish, shu orqali mahalliy ishlab chiqarish imkoniyatlarini oshirish va yangi ish o‘rinlarini yaratishni rag‘batlantirish.

Beshinchidan, hududlararo teng rivojlanishni ta‘minlash uchun xalqaro moliyaviy tashkilotlar va rivojlangan mamlakatlar bilan strategik hamkorlikni kuchaytirish, xalqaro tajribalar va innovatsion texnologiyalar transferini yanada kengaytirish va jadallashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Jahon banki. World Development Report 2022: Finance for an Equitable Recovery.

2. BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP). Human Development Report 2021-22: Uncertain Times, Unsettled Lives.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasi mintaqalarini rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son qarori.

4. Appalachian Regional Commission (AQSh). FY 2021 Performance and Accountability.

5. Shagaida, N., & Lerman, Z. (2008). Land Reform and Development of Land Markets in Russia. ResearchGate, 2008, 128.

6. Caspian Policy Center. (2024). Implementing the K-Silk Road: South Korea’s Growing Commitment to Central Asia. Caspian Policy Center, 2024.

7. Joint Economic Committee. (1983). *Industrial Policy, Economic Growth and the Competitiveness of U.S. Industry*. U.S. Government Printing Office, 1983, 150.
8. Oireachtas Library & Research Service. (2020). *Overview of Freeports or Free Zones*. Oireachtas Library & Research Service, 2020, 30.
9. European Commission. (2024). *Albania 2024 Report — Enlargement and Eastern Neighbourhood*. European Commission, 2024, 120.
10. Cravo, T. et al. (2015). *The Brazilian Regional Development Funds and Economic Growth: A Spatial Panel Approach*. UNU-WIDER, 2015, 28.
11. ResearchGate. (2018). *The Regional Development in Germany*. ResearchGate, 2018, 25.
12. Toktaş, Y., Sevinç, H., & Bozkurt, E. (2013). *The Evolution of Regional Development Agencies: Turkey Case*. *Annales Universitatis Apulensis Series Oeconomica*, 2013, 31–40lar.
13. MIDA. (2024). *Iskandar Malaysia: A Strong and Sustainable Metropolis of International Standing*. MIDA, 2024.
14. Itai, Y. et al. (2024). *Environment for Startups in Japan and Initiatives in the Regional Japan*. *Bank of Japan Review*, 2024, 24-E-5